

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Xalimova Firuza Rustamovna

Samarqand davlat chet tillar instituti
professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc),
e-mail: firuzahalimova@mail.ru

MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069186>

ANNOTATSIYA

Badiiy konsept - bu asarda muallif tomonidan shakllantirilgan obrazlar, ideallar, obrazli tasavvurlar va voqelikning badiiy tahlili orqali yaratilgan tushunchadir. Mazkur maqolada, matnni anglashda va tasavvur qilishda badiiy konseptlarning qanday rol o'ynashi, ularning shakllanishi va matn bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Hozirgi vaqtda matnni lisoniy tahlil qilishda konseptual tahlil samarali hisoblanadi, chunki u mazmunni aniqroq o'rganish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Konseptuallashtirish yoki badiiy matnning konseptuallashtirilgan domenini aniqlash usuli uning tarkibiy qismlarini muayyan mavzuni yoki mikro mavzuni yoritib beradigan til birliklarining yig'indisidan ma'no jihatdan ajratishga asoslangan.

Tayanch so'zlar: konsept, badiiy matn, lisoniy ifoda, tafakkur, milliy konsept, individual-muallifiy, badiiy konsept.

Халимова Фируза Рустамовна

и.о. профессор Самаркандского государственного института иностранных языков,
доктор филологических наук, e-mail: firuzahalimova@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО КОНЦЕПТА В ТЕКСТЕ

АННОТАЦИЯ

Художественный концепт – это понятия, созданная в произведении посредством художественного анализа образов, идеалов, образных представлений и действительности, сформулированных автором. В данной статье будет освещена роль художественного концепта в понимании и воображении текста, их формирование и взаимосвязь с текстом. В настоящее время в лингвистическом анализе текста эффективен концептуальный анализ, поскольку он значительно увеличивает возможности более точного изучения содержания. Метод концептуализации или определения концептуализированной области художественного текста основан на смысловом отделении его компонентов от совокупности языковых единиц, освещающих конкретную тему или микропредмету.

Ключевые слова: концепт, художественный текст, языковое выражение, мышление, национальное понятие, индивидуально-авторское, художественный концепт.

Halimova Firuza Rustamovna,

Associate Professor of the Samarkand state institute of foreign languages, Doctor of Philological Sciences, e-mail: firuzahalimova@mail.ru

FORMATION OF LITERARY CONCEPT IN THE TEXT**ABSTRACT**

A literary concept is a term created in a work through a literary analysis of images, ideals, imaginative representations and reality formulated by the author. This article highlights the role of the literary concept in understanding and imagining the text, their formation and relationship with the text. Currently, conceptual analysis is effective in the linguistic analysis of a text, as it significantly increases the possibilities for a more accurate study of the content. The method of conceptualizing or defining a conceptualized area of a literary text is based on the semantic separation of its components from the totality of linguistic units covering a specific topic or micro-subject.

Keywords: concept, literary text, linguistic expression, thinking, national concept, individual author, literary concept.

Badiiy matnning konseptual tahlili va badiiy konseptlar tasnifi bilan bog'liq masalalar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil o'rganila boshlangan.

Badiiy konsept "nobadiiy" (universaliya konsepti)dan farqli o'laroq, assosiativ-semantik maydonning invariant qiymati sifatida namoyon bo'ladi hamda badiiy matn muallifining shaxsiy tafakkurida hosil bo'ladi. Badiiy konseptning asosiy xususiyati quyidagilar: mazmunning faqat lisoniy ifodasi, (konseptning mazmuni faqat yozuvchining so'z tanlovi asosida aniqlanadi); olamning individual badiiy manzarasida ijodiy lisoniy shaxsning namoyon bo'lishi va adresat tomonidan yozuvchi olamining ifoda etilgan manzarasining elementi sifatida idrok etilishi; estetik ma'lumotlarga yo'naltirish va assosiativ va obrazli qatlamlarning ustunligi; assosiativ-semantik maydonda yadro va periferik zonalarining beqarorligi.

Badiiy matn real olamni moddiy komponentlar orqali ifodalabgina qolmay, balki ideal komponentlarni (moddiy dunyoda mavjud bo'lmagan mavhum tushunchalarni) ham verballashtiruvchi voqelik modelidir [Кубрякова 2004: 90].

Tilshunoslik fani rivojining hozirgi bosqichida shakllangan tilga oid ilmiy g'oyalar doirasida tadqiqotchilarda insonning nutq va fikrlash bilan bog'liq faoliyatining mahsuli bo'lgan matn juda katta qiziqish uyg'otadi. Matnda lisoniy faoliyat qoidalari va me'yorlari uyg'unlashib, yaxlit bir butunni tashkil etuvchi muhim va dinamik bir mohiyatga aylanadi.

Agar til barcha tafakkur jarayonlarning bir qismi bo'lmaganida hamda yangi intellektual makonlar yaratishga qodir bo'lmaganida edi, inson bevosita kuzatiladigan olam doirasidan tashqariga chiqqan olmas edi. V.A. Maslovaning ta'kidlashicha, haqiqiy olam badiiy matnda aks topmaydi, biroq uni talqin qilish asosiy tamoyillarga va u yoki bu obyektning qanchalik chuqur tushunilganligiga bog'liq. Shu sababli inson tomonidan yaratilgan matn inson tafakkurining harakatini aks ettiradi va inson tafakkurini lisoniy vositalar yordamida konkretlashtiradi [Маслова 2008: 19].

Asosiy konsept, ma'lum bir muallif tomonidan matn yoki matnlar guruhida mujassamlangan alohida yaratilgan badiiy olam manzarasining yadrosini tashkil etadi. Olamni badiiy matnda konseptualashtirish dunyoni va shaxsni tartibga solishning universal qonunlarini aks ettiradi, ya'ni badiiy mazmun ko'plab individual ma'nolardan iborat bo'lishi mumkin. Shuning uchun, L.G. Babenko ta'kidlaganidek, matnning nolisoniy parametrlari matnning konseptual makonini – muallifning ismi, tarjimai holi, badiiy asar janri, yaratilgan vaqti va boshqalarni tuzishda muhim rol o'ynaydi [Бабенко 2004: 28]. Badiiy asar – badiiy konseptlar to'plamidan iborat. S.A. Askoldov konseptlarni uch turga ajratadi: kognitiv (mantiqiy), badiiy va estetik. Kognitiv konseptlar, predmet va konkret tasavvurlarning o'rnini olib, obyektning tabiati yoki mohiyati haqidagi farazni, analitik yoki sintetik hukmning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Kognitiv konseptlardan farqli ravishda, badiiy konseptlar "jamiyatni bilish konseptlari, san'at konseptlari" hisoblanadi [Аскольдов 1997: 37].

L.V. Miller badiiy konseptni nafaqat shaxsiy onga, balki ma'lum etnomadaniy jamiyatning psixomental sohasiga tegishli bo'lgan murakkab mental shakllanish, madaniy xotirada shakllangan hamda yangi badiiy ma'nolarni yaratishda qurilish materiali sifatida harakat qila oladigan universal badiiy tajriba bilan bog'laydi [Miller 2000: 41-45]. O.Ye. Bepalova badiiy konsept tushunchasi asosida "badiiy asarda yoki ijod namunalari namoyon bo'ladigan hamda predmet yoki hodisalar mohiyatining individual-muallifiy mazmunda talqin etadigan shoir yoki yozuvchining tafakkur birligi" deb tushunishni taklif etadi [Беспалова 2002; qarang: Кудина 2005: 57-63].

Bizningcha, badiiy konsept – bu muallif badiiy matni konseptosferasining tarkibiy qismi bo'lib, ijodkor tomonidan yaratilgan asarning syujetini yaratishda kognitiv-pragmatik ahamiyatga ega bo'lgan va jamoa ongida aks etgan mental belgi va hodisalardir. Milliy tilning konseptual maydoni tarkibini olamning lisoniy manzarasining bir butun va alohida qismlari sifatida o'rganish, olamni kategoriyalashtiradigan va konseptualashtiradigan asosiy konseptlarning nisbatan to'liq paradigmasini aniqlashga qaratilgan.

Predmet va vaziyatlarning tasvirlari insonning konseptosferasini tashkil qiladi va lisoniy voqelangan konseptlar hamda imo-ishorali akustik belgilar sohasiga kirgan qismi, konnotasiyalar qo'shilishi bilan tilning semantik maydonini tashkil qiladi. Denotativ va konnotativ qismlarning birikishi tufayli tilning semantik maydoni akustik belgilar obrazlarini tashqi dunyo obyektlari va vaziyatlari obrazlari bilan chambarchas bog'laydi [Попова 2005: 214]. Tilning semantik maydoni til belgilari bilan ifodalangan konseptosferaning bir qismidir. Konseptual maydon va tilning semantik makonini farqlash tamoyillarini aniqlash hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb masalasidir [Frawley 1992; Jackendoff 1990, 1995]. Ma'lumki, semantik strukturalarni belgilovchi konseptual strukturalar ma'no tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Konsept amalga oshiradigan dasturning semantik jihatdan asosiy parametrlarini belgilab beradi. Semantik dastur elementlari keyinchalik yana yangilanib, konseptual tizimni boyituvchi yangi tafakkur konseptlarini shakllantirish uchun asos bo'la oladi [Топопова 2003: 41]. Shuni ta'kidlash lozimki, konseptosferaning muayyan maydonini shakllantirish jarayonida konseptlarning xususiyatlari muhimdir, chunki aynan konsept mazmunida xalqlarning madaniy tajribasidagi farqlar namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konseptlar ular uchun begona bo'lgan konseptosferalar bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Bu ko'pincha tegishli konseptlarning qiymat komponentlari mos kelmaganda namoyon bo'ladi [Карасик 2003: 19].

Badiiy matnning konseptosferasini o'rganish asardagi konseptlarning ifodalanish ko'lamini belgilash va ularning lisoniy hodisalar bilan bog'liqlik turlarini aniqlash imkonini beradi. E.A. Ogneva tomonidan konseptlarning quyidagi ko'rinishda shakllanishi qayd etilgan [Огнева 2013: 56]: milliy konsept; individual-muallifiy; badiiy konsept. Shaxsiy (individual-muallifiy) tushunchaning mazmuni lisoniy vositalar to'plami bilan ifodalanishi mumkin, ularning har biri uning faqat bir qismini ochib beradi.

Badiiy konsept mazmunining tavsifi uning semantik xususiyatlari (faktual va baholovchi-konnotativ), verballashish usullarini yetarli darajada aniqlash imkonini beradigan imkon qadar ko'proq kontekstlarni aniqlashga asoslangan. Badiiy konseptni voqelantirish usullarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, konsept, birinchidan, badiiy matnda maxsus lisoniy belgisiz taqdim etilishi mumkin, ikkinchidan, uning mohiyatini ochib beradigan bir qator vaziyatli (kontekstli) xususiyatlar orqali amalga oshiriladi [Новосельцева 2003: 26-27].

So'z, konseptdan farqli o'laroq, badiiy matnda faqat muayyan moddiy belgi orqali amalga oshadi. N.A. Besedinaning ta'kidlashicha, A. Martine so'zni lingvistik relevant tushuncha deb hisobga olmagan, chunki: a) so'zni barcha tillarda ajratish qiyin; b) so'zning fonetik chegaralari yetarli aniqlik bilan belgilanmaydi va fransuz funksionalistlari so'zni fonemalar yig'indisi sifatida ta'riflashgan [Беседина 2006: 24-25].

Tilning leksik tizimi tizimli xarakterga ega bo'lgan milliy konseptosferani qisman verballashtiradi, chunki nolisoniy voqelikni tizimlashtirish va turkumlashtirish jarayoni badiiy asar sahifalarida aks etgan kognitiv jarayondir [Koch 2001: 1142-1178].

Badiiy konseptning matnda voqelanish usullarini aniqlash uchun uning lisoniy qismini tahlil qilishning muhim jihati, matnning o'zi va uning intertekstual aloqalarini o'rganishdir, chunki

adabiyotda madaniyat, tabiat, tarix, jamiyat va inson yagona “intertekst”ga kiritilgan bo‘lib, badiiy konsept tuzilishini tahlil etishning majmuaviy usuli, ko‘rib chiqilayotgan hodisalarning belgisi sifatida leksik birliklarda talqin etilgan konseptning turli darajalarini aniqlash imkonini beruvchi intertekstuallik usulidan foydalaniladi.

Badiiy konseptning mazmuni va badiiy so‘zning lisoniy ma‘nosi o‘xshash tuzilishga ega. Badiiy so‘z uzatilayotgan axborotning tabiati va hajmi bilan “prototip” lug‘atidan sezilarli darajada farq qiladi. “Har bir badiiy so‘z son-sanoqsiz fikr, g‘oya va tushuntirishlarga sabab bo‘lishi bilan nobadiiy so‘zdan farq qiladi” [qarang: Кулибина 2001]. Yozuvchi, ikki – intensiv (barqaror, muqim qism) va implikatsion (ko‘chma, ehtimoliy qism) hududdan iborat murakkab tuzilishga ega bo‘lgan badiiy so‘zning leksik ma‘nosidan foydalanib, badiiy matnda assosiativ ma‘no va bog‘lanishlar hosil qiladi.

Badiiy konsept bilan badiiy matnda amalga oshirilgan, lekin unda konseptual ahamiyatga ega bo‘lmagan so‘z o‘rtasidagi muhim farqlar kontekstual orttiriladigan semantik xususiyatlardir, chunki badiiy so‘zning ma‘nosi matnning badiiy konsepti mazmuni jihatidan kichikroq. Konseptuallashtirish so‘zning ma‘nosini kengaytiradi [Болдырев 2001: 27-31], so‘zlar konseptlarning “ifodalovchisi” hisoblanadi.

Tub farqlar badiiy konsept bilan til belgisi o‘rtasidagi munosabatga ham bog‘liqdir, chunki bilim oluvchining idrokida bitta lisoniy birlik bitta tushuncha (har qanday so‘z, jumladan, rasmiy shaxs)ga mos keladi.

Badiiy konsept muallif g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lgan va o‘ziga xos fikr va nutq subyeksi – badiiy asar muallifi tomonidan nolisoniy voqelikning metaforik o‘zlashtirgan leksik ifodaning obrazlilik bilan xarakterlanadi [Афанасьева 2004: 43-44]. Badiiy konseptlar obrazli va ramziydir, chunki ular berilgan mazmundan ko‘ra ko‘proq ma‘noni anglatadi [Аскольдов 1997: 91]. S. Askoldov bu ramziylikni “assosiativ transsendensiya (zapredelnost)”, ya‘ni “birovning ongi”, “boshqaning tafakkuri” deb ataydi. Badiiy konseptlarning subyektivligi ma‘no tizimini rivojlantirishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini kengroq belgilaydi.

Tilshunolar badiiy konseptning qo‘yidagi xususiyatlarini farqlaydi: mantiq qoidalariga bo‘ysunmaslik; real voqelikka har doir ham mos kelmaslik; potensial obrazga dinamik tarzda yo‘naltirilganlik; obrazlilik; estetiklik; individuallik.

Badiiy konseptning asosi, V.G. Zusmanning fikricha, inson, madaniyat va tabiat munosabatlarining dialogik tuzilishi bo‘lib, bu konsept turini uning umumiy g‘oyasidan tubdan ajratib turadi [Зусман 2001]. Badiiy konseptlar muloqot xususiyatiga ega, chunki ular bir vaqtda ifodalangan nuqtai nazarlarning ko‘pligi bilan bog‘liq.

Badiiy konseptning assosiativ-semantik maydonlaridagi individual assosiasiyalar uning predmetli, tushunchali-konseptual, emosional, aksiologik tarkibini o‘zgartiradi, majoziy qatlamning ahamiyatini bir necha bor oshiradi. Shuning uchun badiiy matn doirasidagi badiiy konseptlarning ifoda vositalari va tuzilishi jihatidan estetik rolini aniqlash jarayonida uni asliyat darajasini (shaxsiy tarkibini) ham inobatga olish lozim, chunki, aynan ushbu omil badiiy konsept xususiyatini belgilaydi. Avvalo, turli mualliflarning badiiy matnlarda bir xil mazmun, tarkib, hattoki obrazni ifoda etuvchi umumbadiiy konseptni ajratish lozim. Badiiy konseptning ikkinchi turi – individual-muallifiy konsept – axborot yaxlitligi, mazmuni va nutqda namoyon bo‘lishi faqat bitta muallif ijodiga oid bo‘ladi.

Masalan, o‘zbek she‘riyatida “Vatan” konseptual maydoni “Ona Zamin”, “Ona”, “musaffo osmon”, “makon”, “yurt”, “tuproq”, “O‘zbekiston”, “ozodlik” kabi umumbadiiy konseptlardan tashkil topgan bo‘ladi. Shoir Muhammad Yusuf she‘riyatini tahlil qilganimizda, “Vatan” konsepti - “sajdagoh”, “ona suti”, “tuproq‘i ko‘zga to‘tiyo” kabi individual-muallifiy konsept mazmunlarida o‘ziga xos tarzda aks etilishining guvohi bo‘lamiz. Qiyoslang:

Kimga dasht boshpana, kimgadur gulzor,
Har kimning sig‘ingan sajdagohi bor.
Har hovuch tuprog‘i ko‘zga to‘tiyo,
Biz uchun qadrdon shu aziz diyor.

...

Otalar himmatin yodi mash'ali,

Onalar oq suti hurmati – Vatan.

[Muhammad Yusuf “Vatan madhi”]

Vatan, qayda bo‘lmay, sen hamrohimsan,

Bobolarim yotar sajdagohimsan.

[Muhammad Yusuf “Vatan”]

Yurt qadrini bilmaganlar kerak emas,

Erkka sajda qilmaganlar kerak emas.

[Muhammad Yusuf “Fidoyilar”]

Sensiz sahrolarda sarobdir yo‘lim,

Tuproq‘i ko‘zimga to‘tiyo elim.

[Muhammad Yusuf “To‘ning etagidan tushmasin qo‘lim”]

Ammo rosti labda boldek qotib qolgan shu –

Onam suti, onam suti ekan-da Vatan!

[Muhammad Yusuf “Sizga aytsam”]

Bir Onaning ko‘kragidan oq sut emib,

Bir otaning etagidan taralgansan.

[Muhammad Yusuf “Turkiston madhiyasi”]

Tuproq yurtim mening,

To‘pori yurtim.

Ko‘zimga to‘tiyo g‘ubori yurtim

[Muhammad Yusuf “Yurtim”]

Badiiy matn, M. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurni shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi [Yo‘ldoshev 2008: 99]. Ushbu xususiyatlar ta’siri ostida badiiy konsept paydo bo‘ladi.

Olamning badiiy manzarasi murakkab tarkibli, ko‘p aspektlardan iborat bo‘lib, ba’zida lisoniy ifoda bilan tafovutga ega bo‘ladi. Yozuvchining olam manzarasi tasviri xususiyatlari, uning asosini qanday majoziy-mantiqiy mental majmualar tashkil etishi va ularning ma’lum badiiy matnlarda qanday ifodalanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun, tabiiyki, badiiy konseptning to‘liq va aniq tasnifini yaratish, faqat ko‘plab badiiy asarlarini ko‘rib chiqish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurova D.U. Text Linguistics. – Tashkent: “Tafakkur qanoti”, 2012. – 204 p.
2. Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l, elim. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 208 b.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008. – 142 b.
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – T.: “Fan” nashriyoti, 2013. – 135 b.
5. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность // От теории словесности к структуре текста: Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279.
6. Афанасьева О.В. Особенности лексической репрезентации художественного концепта (на примере концепта времени в произведении Р.М. дель Валье-Инклана «Весенняя соната») // Русская и сопоставительная филология: состояние и перспективы: Междунар. науч. конф., посвященная 200-летию Казанского университета. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2004. – С. 43-44.
7. Бабенко Л.Г. Филологический анализ текста. Основы теории, принципы и аспекты анализа: учеб. для вузов. – М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2004. – 464 с.
8. Беседина, Н.А. Морфологически передаваемые концепты. – Тамбов: Изд-во ТГУ; – Белгород: Изд-во БелГУ, 2006. – 214 с.

9. Болдырев Н.Н. Концепт и значение слова // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. – С. 25-36.
10. Зусман В.Г. Диалог и концепт в литературе. Литература и музыка. – Новгород, 2001. – 110 с.
11. Карасик В.И. Транслируемость концептов // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы Международного симпозиума: В 2 ч. 4.2. Тезисы докладов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 17-19.
12. Кулибина Н.В. Художественный дискурс как актуализация художественного текста в сознании читателя // Мир русского слова. 2001. <http://diplstud.ru/09/dok.php?id=010>
13. Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке. – М., 2004. – 560 с.
14. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М: ТетраСистем, 2008. – 272 с.
15. Новосельцева В.А. О соотношении понятий «содержание художественного концепта» и «лексическое значение художественного слова» // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы междунар. симпозиума. –Волгоград: Перемена, 2003. – С. 26-28.
16. Огнева Е.А. Когнитивное моделирование концептосферы художественного текста. 2-е изд. дополн. – М.: Эдитус, 2013. – 282 с.
17. Топорова В.П. Семантическая программа концепта // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы междунар. симпозиума. Ч.2. Тезисы докладов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 39-41.
18. Cambridge Dictionaries. Online. URL: <http://dictionary.cambridge.org/ru>
19. Frawley W. Linguistic Semantics. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1992. – 533 p.
20. Jackendoff R. Semantic Structures. – Cambridge, Mass. 1990. – 322 p.
21. Jackendoff R. Semantic Structures. – Cambridge, MA; London: The MIT Press, 1995. – 322 p.
22. Koch P. Lexical typology from a cognitive and linguistic point of view, in: Haspelmath, M. et al. // Language Typology and Language Universals. An International Handbook/ Ein internationales Handbuch/Manuel international. 2 vol. – Berlin/New York, II, 2001. – P. 1142-1178.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000